BOYOVUT-4 SOVXOZIGA RAHBARLIK QILGAN USMON YUSUPOV FAOLIYATINING O‘ZIGA XOSLIGI

Raxmon Rashidovich Muxammadiyev, O‘zbekiston Milliy universiteti katta o‘qituvchisi, tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
e-mail: m.raxmon@nuu.uz

Annotatsiya. Ushbu maqolada hozirda Sirdaryo viloyati, sovet yillarida esa Toshkent viloyatiga qarashli bo‘lgan, 1955-1960-yillarda Boyovut-4 sovxoziga direktorlik qilgan Usmon Yusupovning faoliyati, u tomonidan sovxozda paxta yetishtirishni ko‘paytirish, davlatga paxta topshirish rejasini bajarish borasida amalga oshirilgan ishlar, shuningdek aholi turmush farovonligini yaxshilash va buning ortidan mehnat unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar to‘g‘risida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: Boyovut-4, Usmon Yusupov, irrigatsiya, paxta, Mirzacho‘l, “Golodnostepstroy”, dehqonchilik, sho‘rxok yer, aholi.

СПЕЦИФИКА ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УСМАНА ЮСУПОВА, ВОЗГЛАВЛЯВШЕГО СОВХОЗ «БАЯУТ-4»

Аннотация. В данной статье дана информацию деятельность Усмана Юсупова, который в 1955-1960 годах был директором совхоза Баяут-4, сейчас в составе Сырдарьинской области, а в советские годы принадлежала Ташкентской области, проделанная им работа по увеличению выращивания хлопка в совхозе, выполнение плана по передаче хлопка государству, а также меры, направленные на улучшение благосостояния населения и последующее повышение производительности труда.

Ключевые слова: Баяут-4, Усман Юсупов, ирригация, хлопок, Мирзачул, «Голодностепстрой», земледелие, засоленные земли, население.

THE SPECIFICS OF THE ACTIVITIES OF USMAN YUSUPOV, WHO HEADED THE STATE FARM “BAYAUT-4”

Annotation. This article provides information about the activities of Usman Yusupov, who in 1955-1960 was the director of the Bayaut-4 state farm, now part of the Syrdarya region, and in the Soviet years belonged to the Tashkent region, the work he did to increase the cultivation of cotton on the state farm, the implementation of the transfer plan cotton to the state, as well as measures aimed at improving the welfare of the population and the subsequent increase in labor productivity.

Keywords: Bayaut-4, Usman Yusupov, irrigation, cotton, Mirzachul, Golodnostepstroy, agriculture, saline lands, population.

Кириш. 1937-1950 yillrda O‘zbekiston SSR rahbari bo‘lgan Usmon Yusupovning mehnat faoliyatida Sirdaryo viloyati Boyovut tumanidagi hozirgi “Hosilobod”, “Yangiobod”, “Bunyodkor” va “Mirishkor” mahallalari hududidagi sobiq “Boyovut-4” sovxozi bilan bog‘liq sahifa ham bor. Ya’ni u kishi mazkur xo‘jalikka 1955-1960 yillar davomida besh yil rahbarlik qilgan. Usmon Yusupovning eng avvalo xalqning yashash turmushini yaxshilashga katta e’tibor qaratgani hali-hamon bu yerda yashovchi aholi tomonidan yaxshi xotiralar bilan yodga olinadi. Hududda yashovchi yoshi ulug‘ insonlar u kishini hurmat bilan “Usmon ota” deb eslashadi. Bundan tashqari Sirdaryo viloyatining Boyovut tumani tarkibiga kiruvchi shaharchalardan biri Usmon Yusupovni sharafiga Usmonobod deb ataladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Usmon Yusupovning Boyovut-4 sovxoziga rahbarlik qilgan yillardagi faoliyati haqida sovet davri va mustaqillik yillarida bir qator tadqiqotchilar tomonidan maqola va kitoblar chop etilgan. Jumladan sovet davriga oid T. Jamolov [2], B. Reskov, G. Sedov [3] tomonidan yozilgan kitoblarda Usmon Yusupovning Boyovut-4 sovxozida paxtachilikni rivojlantirish va xalq turmush sharoitini yaxshilash borasida amalga oshirgan ishlari batafsil yoritilgan. Mustaqillik yillarida Usmon Yusupovning siyosiy rahbarlik faoliyati, jumladan Boyovut sovxoziga direktorlik qilgan yillari haqida Q.Rajabov [1], A.Abdurazzoqov [8] o‘z tadqiqotlarida xolisona ma’lumotlar berishgan. Usmon Yusupovning Boyovut-4 sovxoziga rahbarlik qilgan 1955-1960-yillarga oid ma’lumotlar “Qizil O‘zbekiston” [7], “Pravda Vostoka” [10] kabi davriy matbuot nashrlarida ham keng yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada umum qabul qilingan usullar tarixiy tahlil, xronologik ketma-ketlik tamoyillari asosida Usmon Yusupovning Boyovut-4 sovxoziga rahbarlik qilgan yillardagi faoliyati va u tomonidan amalga oshirilgan ishlar bayon qilingan.

Tahlil va natijalar. 1954-yil 18-dekabrda KPSS Markaziy Komiteti birinchi sekretari Nikita Xrushchyov boshchiligida Toshkentda shoshilinch ravishda yig‘ilish o‘tkazilib, unda 54 yoshli Usmon Yusupov milliy manfaatlarni o‘ylash, markaz topshiriqlarini bajarmaslikda ayblanib, O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining raisi lavozimidan olib tashlanadi hamda keyinchalik u Mirzacho‘ldagi “Boyovut-4” sovxoziga direktor qilib yuboriladi [1, 223].

1955-yilning fevral oyida Boyovut-4 sovxozida direktorlik lavozimiga kirishgan Usmon Yusupov oldida bir qator hal qilinishi kerak bo‘lgan muammolar mavjud edi. Sovxoz xo‘jaligi respublika bo‘yicha oxirgi o‘rinlardan birida bo‘lib, foydalaniladigan yerlarning 60 foizi sho‘rlanib, paxta ekish, dehqonchilik qilish uchun yaroqsiz holatga kelib qolgan, bu yerda yashovchi aholining turmush sharoiti ham og‘ir bo‘lib, bu muammolarning barchasini hal etish uchun Usmon Yusupovdan tashkilotchilik mahorati va sabr matonat talab etilardi [2, 14].

Usmon Yusupov Boyovut-4 sovxozida sho‘r bosgan yerlarni meliorativ holatini yaxshilash, yetishtiriladigan paxta hosilini ko‘paytirish borasida bir qancha

chora tadbirlarni amalga oshirgan. Jumladan, sho‘r bosgan yerlarni yaroqli holatga keltirish uchun bunday yerlarga sholi ekishni joriy qilgan. Buning uchun Boyovut-4 sovxoziga Farg‘ona vodiysi va Xorazm viloyati kolxozlaridan mutaxassis sholikorlar taklif qilinib ularning ish tajribasi mahalliy ishchi-dehqonlarga o‘rgatilgan. Ushbu tajriba sho‘r bosgan yerlarda yaxshi samara berishi o‘z isbotini topgach, oradan bir necha yil o‘tib O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining “Sho‘r bosgan yerlarga dastlab sholi ekib, so‘ngra paxta yetishtirish to‘g‘risida” ko‘rsatmasi qabul qilingan [3, 244].

Boyovut-4 sovxozida ishchi kuchining yetishmasligi minglab gektar yerdagi paxtani yoz oylarida sug‘orish ishlarini qiyinlashtirardi. Bunga yechim topish uchun Usmon Yusupov Toshkent irrigatsiya institutining dotsenti Grigoriy Xorst bilan sovxozning paxta dalalarida sug‘orish tizimini yaxshilash bo‘yicha tadqiqotlar olib borgan. O‘rganishlar natijasida cho‘l sharoitida paxtani sug‘orish uchun o‘q ariq olishdan voz kechish va paxta qatorlarini bevosita kanaldan suv ichadigan taqsimlovchi jo‘yaklar guruhi bilan almashtirish kerak degan xulosa kelishgan. Bu haqda tadqiqot natijalari sifatida “O‘zbekiston sosialistik qishloq xo‘jaligi” jurnalining 1956-yildagi o‘n birinchi sonida “Mirzacho‘lda g‘czani sug‘orishni rasionalizatsiya qilish yo‘llari” nomli maqola e’lon qilingan [4, 76].

Oradan bir yildan ko‘proq vaqt o‘tib, 1958-yil 26-iyunda O‘zbekiston Kompartiyasi Markaziy Qo‘mitasining Pleniumida “Respublika kolxoz va sovxozlarida g‘o‘zaning rivojlanishidagi qoloqlikni tugatish tadbirlari to‘g‘risida” qaror qabul qilinadi. Unda 1957-yilda yaxshi natija bergan paxta dalalarini taqsimlovchi jo‘yaklar orqali sug‘orishni tashkil qilish, yaxlit dalalarni o‘q ariqlar orqali bo‘lib-bo‘lib sug‘orish kabi qiyin va zararli tajribadan voz kechish ko‘rsatilgan [5]. Mana shu kabi faktlar Usmon Yusupovni qishloq xo‘jaligi xususan, paxtachilikda ma’lum bir tajribaga ega rahbar bo‘lganligidan dalolat beradi.

Boyovut-4 sovxozida aholining turmush sharoitini yaxshilash uchun birinchi navbatda yo‘l, uy-joy, maktab va shifoxona qurish ishlarini amalga oshirish lozim edi. Usmon Yusupov o‘sha vaqtlarda “Golodnostepstroy” boshqarmasi boshlig‘i A. A. Sarkisovdan yordam olib, sovxozdagi odamlarni hasharga uyushtirgan holda asosiy tuproq yo‘llarni tosh-shag‘alli qilib ta’mirlatishga erishgan [6, 25]. Yo‘l va sharoitning yaxshilanib borishi ortidan sovxozga qo‘shni kolxoz va tumanlardan dehqonchilik va paxta yetishtirishda asosiy ishchi kuchi bo‘lgan yangi oilalarni ko‘chib kelishi ko‘paygan. 1958-yil 11-iyunda “Qizil O‘zbekiston” gazetasida jurnalist B. Mahmudovning “Mirzacho‘l qurilishlarini tezlashtirish kerak” sarlavhali maqolasi e’lon qilingan. Unda respublikadagi ba’zi ministrliklar, idoralar va tashkilotlar Mirzacho‘lda bo‘layotgan qurilishlarga befarq qarab, bu muhim ishlarni sun’iy ravishda kechiktirayotganligi, O‘zbekiston SSR Avtomobil transporti va tosh yo‘llar ministrligi, respublika Madaniyat, Maorif, Sog‘liqni saqlash ministrliklari e’tiborsizligi orqasidan Mirzacho‘ldagi sovxozlarning markazlarida kinoteatrlar, klublar, maktablar, kasalxonalar, bolalar bog‘chalari, tug‘ruqxonalar qurilishlari juda sekin olib borilayotganligi ta’kidlangan [7]. Ushbu ma’lumotlar Usmon Yusupovni Mirzacho‘lni o‘zlashtirilayotgan hududlaridan biridagi sharoiti og‘ir sovxozga rahbar qilib yuborilganligidan dalolat beradi.

1958-yil yoz oylarining oxirida Boyovut-4 sovxoziga Forish tumanidan 100 ta xo‘jalik ko‘chib kelgan. Ko‘chib kelgan odamlar o‘zlari hashar yo‘li bilan xom g‘ishtdan uylar qurishgan, ammo yog‘och va taxta bo‘lmaganligi uchun tomlarni yopishni iloji bo‘lmagan. Qurilish materiallari so‘rab tuman, viloyat qurilish bo‘limlari, partiya tashkilotlariga qilingan murojaatlar ba’zi bir shaxsiy kelishmovchiliklar tufayli turli bahonalar bilan kechiktirib kelingan. Mana shunday bir vaziyatda Usmon Yusupov shaxsan o‘zi Toshkentda yuqori lavozimda ishlovchi eski tanishlari orqali yog‘och-taxta ortilgan besh vagon yukni sovxozga olib kelgan [8, 41]. Shuningdek, Usmon Yusupov Boyovut-4 sovxoziga rahbar bo‘lib kelgan paytda xo‘jalikni idorasi xom g‘isht va paxsadan qurilgan edi. Usmon Yusupov Yangiyo‘l shahridagi pishiq g‘isht zavodidan g‘isht olib keldirib, sovxoz uchun yangi idora binosi, maktab, bog‘cha va klub qurdirgan.

Usmon Yusupov Boyovut-4 sovxozini ilg‘or xo‘jaliklar qatoriga qo‘shish uchun ahvol og‘ir, ishchi kuchi kam bo‘lgan murakkab bir sharoitda sovxozda mexanizatorlar tayyorlash, ish unumdorligini oshirishda texnikadan samarali foydalanishni tashkil qilgan. Bu rejalarni bajarish uchun 1959 yilda sovxozdagi ekin maydoni 200 gektardan ortiq bo‘lgan bo‘limlarga bittadan DT-54 traktori biriktirib berilgan. Shuningdek, o‘z yeridan yuqori paxta hosili yetishtirgan bo‘limlarga shaxsiy xo‘jalikdagi chorva mollari uchun beda ekishga ham ruxsat berilgan [9, 274].

1959 yil 8 aprelda Toshkent viloyat partiya qo‘mitasining plenumida nutq so‘zlagan Usmon Yusupov ishchi va bo‘limlarga ularning bajargan ishlariga qarab haq to‘lash, mehnat unumdorligini oshirish uchun paxta ekish va terishda qishloq xo‘jaligi texnikalardan samarali foydalanish, buning uchun MTSlar hisobidagi traktorlarni bo‘limlarni o‘ziga mexanizatorlar bilan birgalikda biriktirib berish hamda ish sifatiga qarab to‘lanadigan pul miqdorini oshirib borishni taklif qiladi [10].Usmon Yusupov Boyovut-4 sovxozida besh yil direktor bo‘lib ishlagan. Shu vaqt ichida u sovxoz ishchi-dehqonlari bilan birgalikda katta yutuqlarni qo‘lga kiritgan. Jumladan, Usmon Yusupov Boyovut-4 ga direktor qilib yuborilgan dastlabki paytda sovxoz qoramol fermasida 29 bosh sog‘in sigir bo‘lgan bo‘lsa, nafaqa chiqib bu yerdan ketayotgan paytda sog‘iladigan sigirlar 300 boshni tashkil qilgan. Eng katta yutuqlar shubhasiz, paxta yetishtirishda qo‘lga kiritilgan. Boyovut-4 sovxozi ham Usmon Yusupov rahbarlik qilgan yillarda respublikaning boshqa xo‘jaliklari singari belgilangan rejalarni ket-ketma bajara boshlagan. 1960-yilning sentyabr oyida Usmon Yusupov boshchiligidagi sovxoz mehnatkashlarining samarali mehnatlari evaziga Boyovut rayoni yig‘im-terimda eng yuqori ko‘rsatkichga erishib, respublika ko‘chma Qizil bayrog‘ini qo‘lga kiritgan [11]. Uning bu yutuqlari inobatga olingan holda O‘zbekiston SSR Ministrlar Sovetining qarori bilan faxriy yorliq va “Rekord” rusumli radioapparat bilan mukofotlangan [12, 259].

Sovxoz uchun bir qancha samarali ishlarni amalga oshirgan va qolaversa, el-yurtimiz manfaaatlari yo‘lida sidqidildan xizmat qilgan xalqimizning fidoyi farzandi Usmon Yusupov xotirasini abadiylashtirish maqsadida, respublika hukumatining ko‘rsatmasi bilan 2020 yil 5 noyabrda u rahbarlik qilgan Boyovut-4

sovxozi tarkibiga kiruvchi “Hosilobod” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida 8-gektarlik Usmon Yusupov nomi bilan ataluvchi xotira majmuasi barpo etildi [13].



Uzumzor. Usmon Yusupov va sohibkor bog‘bon Rizamat ota Musamuxamedov. Boyovut-4 sovxozi, 1959-yil. (Usmon Yusupov uy-muzeyi arxividan).

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, Usmon Yusupov respublika va ittifoq miqyosidagi rahbarlikdan tushurilib, iqtisodiy jihatdan ancha orqada bo‘lgan Boyovut-4 sovxoziga direktor bo‘lib kelganda, bu yerda yashayotgan odamlarning yaxshi sharoitlarda ishlash, mehnatga yarasha haq olish kabi umidlari ushalishi qiyin bir orzuga o‘xshagan. Ammo, qoloq bir sovxozga rahbar bo‘lgan Usmon Yusupov bejizga ittifoq darajasidagi lavozimlarda ishlamaganligini isboti sifatida o‘z uddaburonligi va qolaversa, bu yerdagi mehnatkash aholining qo‘llab-quvvatlovi bilan Boyovut 4 sovxozini 1950-yillarning oxirida respublikaning ilg‘or xo‘jaliklaridan biriga aylantirishga muvaffaq bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdurazzoqov A. Abadiy barhayot siymolar. – Toshkent: “Turon-Iqbol”, 2019. – B. 41.
2. Jamolov T. Mirzacho‘l: kecha, bugun, erta. – Toshkent: Mehnat, 1987. – B. 14.
3. Jamolov T. Mirzacho‘l: kecha, bugun, erta. – Toshkent: Mehnat, 1987. – B. 25.
4. Qizil O‘zbekiston. 11 iyun 1958 yil. №135.
5. Qizil O‘zbekiston. 27 iyun 1958 yil. № 149.
6. Pravda Vostoka. 10 aprelya, 1959 goda. №84.
7. Ресков Б., Седов Г. Усман Юсупов: Жизнь замечательных людей: Серия биографий. – Москва: Молодая гвардия, 1976. – С. 244.

8. O‘zbekiston SSR rahbariyatining ijtimoiy va siyosiy faoliyati (1945-1983 yillar). Mas’ul muharrir: Q. Rajabov. – Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi “Fan” nashriyoti davlat korxonasi, 2020. – B. 223.

9. Юсупов У. Избранные труды. Том III. – Ташкент: Узбекистан, 1984. – С. 274.

10. Юсупов У.Ю., Хорст Г.А. «Пути рационализации полива хлопчатника в Голодной степи» // Социалистической сельской хозяйство Узбекистана, 1956. № 11. – С. 76.

11. https://daryo.uz/k/2020/11/06/boyovutda-usmon-yusupovga-byust-ornatildi

12. https://farhaqiqat.uz/?p=16669